

MANZARALI O'SIMLIKLARNING SHAHAR INFRATUZILMASIDAGI EKOLOGIK AHAMIYATI.

T.E. Usmanova

J.Sh. Muhammadov

M.A. Mo'minova

N.R. Maxmudova

Аннотация. Bugungi kunda urbanizatsiyaning jadallik bilan rivojlanishi, sanoatlash va transport vositalarining ko'payishi natijasida atrof-muhitning ekologik holati keskin o'zgarib bormoqda. Bunday sharoitda manzarali o'simliklar shahar muhitini sog'lomlashtirish, estetik ko'rinishini yaxshilash va aholining psixologik farovonligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Калит so'zlar; Manzarali o'simliklar, shahar ekologiyasi, yashil hududlar, shahar mikroiklimi, estetik ahamiyat.

Ключевые слова; Декоративные растения, городская экология, зеленые зоны, городской микроклимат, эстетическая ценность.

Keywords; Ornamental plants, urban ecology, green areas, urban microclimate, aesthetic value.

Аннотация. Сегодня в результате ускоренного развития урбанизации, индустриализации и увеличения количества транспортных средств резко меняется экологическое состояние окружающей среды. В этих условиях декоративные растения играют важную роль в оздоровлении городской среды, улучшении ее эстетического вида и обеспечении психологического благополучия жителей.

Annotation. Today, as a result of the accelerated development of urbanization, industrialization and an increase in the number of vehicles, the ecological state of the

environment is dramatically changing. In these conditions, ornamental plants play an important role in improving the urban environment, improving its aesthetic appearance and ensuring the psychological well-being of residents.

Introduction. Ornamental trees, shrubs and flower beds are an integral part of urban infrastructure and perform not only air purification and oxygen production, but also such functions as noise reduction, prevention of soil erosion, stabilization of the microclimate. Therefore, in modern urban planning, the issues of expanding green spaces, proper placement and care of plants, taking into account their biological characteristics, are considered as one of the main directions of ecological and aesthetic improvement of urban infrastructure.

Nazariy qism. Yangi O‘zbekistonni barpo etish hamda Uchinchi Renessansga poydevor qo‘yishdek ulug‘vor sa‘y-harakatlar samarasi o‘laroq, shahar va qishloqlarimiz bugun zamonaviy qiyofa kasb etmoqda. Yurtimizning barcha hududlarida keng ko‘lamli obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda buning natijasida esa zamonaviy shaharlarning eng yuksak namunalari o‘laroq shaharlarimizda ham ulkan bunyodkorlik va ko‘kalamzorlashtirish ishlari olib borilayotgani hammamizga ma‘lum. Ko‘kalamzorlashtirishning asosiy jihati shundan iboratki, bunda tabiiy daraxt ekinzorlari hududidan foydalangan holda, qiyofasini o‘zgartirib borish, tabiat namunalarini amaliy san‘at ishlari bilan birlashtirib, yaxlit bir manzarani yaratishdir.

Manzarabop ekinlarni ko‘paytirish qadimda quldorlik jamiyati davrida vujudga kelgan. O‘sha vaqtlarda ham saroylar, maqbaralar, badavlat xonadonlarda hiyobon va bog‘lar barpo etilgan va ko‘kalamzorlashtirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Misol uchun Qadimiy Misr bog‘larini rejalashtirishda ma‘lum qoidalarga amal qilingan: kompozitsiya markazida asosiy bino joylashgan, ikki tomoniga daraxt ekilgan uzun yo‘lak (alleya) ushbu kompozitsiyaning asosiy qismi bo‘lib, hovliga kirish joyi bilan bog‘langan hamda bog‘ hududini ikkita teng bo‘limga ajratgan. Har bir bo‘lagida esa to‘g‘ri burchakli suv havzalari barpo etilgan. Qadimiy Mesopotamiya davlatlarida ov qilishga mo‘ljallangan katta qo‘riqxonalar tashkil qilingan.

Ekinzorlarning tuzilishi, kengligi, balandligi va daraxt turlari tarkibi ushbu ko'rsatkichlarga chambarchas bog'liq. Yirik shox-shabbali, tuklangan, ajinsimon, g'adir- budir, notekis bargli daraxt turlari (eman, qayrag'och, tut, qora yong'oq, oq terak, chinor, mayda bargli jiyda, zirk, katalpa, sovun daraxti, karkas va b.) havodagi changni yaxshi ushlaydi. Xuddi shular zaharli kamyoviy birikmalarni, ayniqsa, karbonat angidridini tortib olib, o'zlashtiradi.

Ignabarglilar yaproq bargi daraxtlarga nisbatan changni ko'proq ushlab qoladi. Kuz, qorsiz qish va erta bahorda, aholi turar joylarida chang ko'p to'planganida ninabarglilarning jumladan ayniqsa kiparisdoshlar oilasining vakillarini barglari tangacha bargli bo'lganligi tanani zich qoplab turganligi ham ahamiyati katta, chunki bu vaqtda bargli daraxtlarning yaproqlari bo'lmaydi.

Baland o'suvchi eman, sofora, aylant, qayrag'och, shumtol daraxtlari katta barg sathiga ega bo'lganligi uchun, ulardan tuzilgan yashil massivlar atmosferani transport –sanoat chiqitlari va changlaridan yaxshi himoya qiladi. To'liq ko'kalamzorlashtirish natijasida havo changdan deyarli batamom tozalanadi. Bunda o'simliklardan avtomomil yo'llarni ko'kalamzorlashtirishda kehg foydalaniladi. Avtomobil magistrallarini ko'kalamzorlashtirish: yo'lning har ikkala tomoniga ekiladigan himoya va manzarali ekinzorlar, yo'lning bo'lish chizig'ini (1 toifali yo'llarda) ko'kalamzorlashtirish, chorrahalarini, avtobus bekatlarini, yo'lovchi va haydovchilarning uzoqroq dam olishga mo'ljallangan joylarni ko'kalamzorlashtirishni o'z ichiga oladi.

Ko'kalamzorlashtirish asosan yo'l bo'yi ihotazorlari bo'lib, yo'lni yemirilishdan saqlaydi, harakat xavfsizligini ta'minlovchi qulay iqlim va gigiyenik sharoitlarini vujudga keltiradi. Ushbu ekinzorlar relyefning tekislik joylarida, qatorlab ekish yo'li bilan barpo etiladi, qatorlar soni yo'l chetidagi kenglik bilan belgilanadi. O'simliklardan ajralib chiqadigan fitonsidlar havodagi zararli mikroblarni 40-50% ga kamaytiradi. Havoning tozaligini ta'minlash uchun boshqa qo'shimcha tadbirlar – sanoat korxonalarini chiqindilarining tarqalishini oldini olish chora tadbirlari bilan birga ko'chalarni obodonlashtirish ham muhim hisoblanadi. Yoz mavsumida daraxt va

butalar bargidagi changni tez-tez yuvib turish zarur, changlarning ko'p miqdorda to'planishi o'simliklarning nafas olishlariga va rivojlanishlariga salbiy ta'sir etib ularni asta sekin nobud bo'lishiga olib kelishi mumkin. Katta yoshdagi bitta daraxt o'sish davrida havodagi chang miqdorini ushlab qolishi u yoki bu turdagi daraxt va butalarning changdan himoyalash xususiyatini o'rganib, har tomonlama rejali tashkil etilsa, ularni to'g'ri tanlab joylashtirilsa, yuqori himoya samarasiga erishish mumkin. Muhandislik va ekologik-biologik jihatdan to'g'ri loyihalash orqali yashil ekinzorlar ishining sanitarlik vazifasi samaradorligi ta'minlanadi. Yashil sanitar ekinzorlarni barpo etishda shamol yo'nalishi, atmosferaga tarqaladigan chiqitlarning turi, balandligi va tarkibi, kimyoviy va fizik xossalari inobatga olinishi lozim. Bundan tashqari shaharsozlikning rivojlanish, transportlar soning ortishi bilan shovqinga qarshi kurash muammosi ham tobora keskinlashib bormoqda. Shovqin darajasining ortishi inson organizmiga salbiy ta'sir etadi. Turli xildagi asab tizimi bilan bog'liq kasalliklarni keltirib chiqaradi. Shahar shovqinlarining kamaytirishda esa o'simliklar olamining o'rni beqiyosdir. Baland bo'yli, shox-shabbasi yoyilgan daraxtlarning shaxmat usulida ekish maqsadga muvofiqdir. Nina barglilar yaproq bargi daraxtlarga nisbatan changni ko'proq ushlab qoladi. Baland o'suvchi eman, sofora, aylant, qayrag'och, shumtol daraxtlari katta barg sathiga ega bo'lganligi uchun, ulardan tuzilgan yashil massivlar atmosferani transport –sanoat chiqitlari va changlaridan yaxshi himoya qiladi.

Xulosa. Manzarali o'simliklar shahar infratuzilmasining ajralmas ekologik qismi bo'lib, ular urbanizatsiya jarayonida yuzaga keladigan tabiiy muvozanat buzilishlarini bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Ular atmosferadagi chang, zararli gazlar va issiqlik ortiqchasini yutish orqali shahar havosining sifatini yaxshilaydi, mikroiklimni barqarorlashtiradi hamda biologik xilma-xillikni saqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, manzarali o'simliklar shovqinni kamaytirish, tuproq eroziyasining oldini olish, suv aylanishini tartibga solish va psixologik ijobiy muhit yaratish kabi ko'p qirrali ekologik funksiyalarni bajaradi. Shuning uchun yashil hududlarni rejalashtirish va ularni ilmiy asosda parvarishlash shahar infratuzilmasining barqaror rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi. Demak, manzarali o'simliklarni keng miqyosda ekish va ularning

ekologik xususiyatlarini hisobga olish shaharlarning barqaror, sog‘lom va estetik jihatdan jozibador rivojlanishini ta‘minlashning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abduazizov, A. (2021). Shahar ekologiyasi va ko‘kalamzorlashtirish asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Rasulov, B. va To‘xtayev, M. (2020). Manzarali o‘simliklar biologiyasi va ularni parvarishlash. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
3. G‘ulomov, R. (2019). Shaharsozlikda ekologik barqarorlik va landshaft dizayni. Samarqand: SamDU nashriyoti.
4. Hasanov, M., & Qodirova, S. (2022). Urbanizatsiya sharoitida yashil hududlarni tashkil etish va ularning ekologik ahamiyati. “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” jurnali, №3, 45–52-betlar.
5. Karimova, D. (2018). Landshaft arxitekturasi va manzarali bog‘dorchilik. Toshkent: Me‘morchilik va qurilish instituti nashriyoti.
6. A.X.O‘roqov “Avtomobil yo‘llarini ko‘kalamzorlashtirish” O‘quv qo‘llanma.T. 2019.